



**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2025-yil “ 29 ”-avgustdagi**

323-SON BUYRUG‘I



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash
to’g’risida

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog xodimlar faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda yagona yondashuvni ta’minlash, yuritilayotgan ish hujjatlarni tartibga solish, bu borada ortiqcha qog‘ozbozlikka yo‘l qo‘ymaslik hamda me’yoriy hujjatlar asosida faoliyat olib borilishini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va pedagoglarining ish hujjatlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi va oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda pedagoglarining ish hujjatlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va pedagoglarning ish hujjatlarini yuritish bo‘yicha yo‘riqnoma 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur buyruqqa asosan tasdiqlanayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab yuritiladi.

3. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (L.Berdiyeva), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdullayeva) maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini yuritilishi bo‘yicha pedagog xodimlar uchun o‘quv seminarlar tashkil etsin va ularga amaliy-metodik yordam ko‘rsatib borsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqning mazmun-mohiyatini keng pedagogik jamoaga yetkazish;

barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning ish hujjatlari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ilovalar asosida qayta ko'rib chiqilishi va yuritilishini ta'minlash choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo'linmalar va tasarrufdagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida" 99-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2025-yil " 29 "-avgust,
323-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 29 ”-avgustdagi
323-son buyrug‘iga
1-ilova

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va pedagoglarining ish hujjatlari
RO‘YXATI

Yig‘ma jild indeksi	Yig‘ma jild nomi	Saqlanish muddati (modda raqamlari)
01 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruv hujjatlari		
01-01	Kiruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ro‘yxatga olish daftari. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limidan yuborilgan buyruq, xat va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, turli tashkilot va idoralardan kelib tushgan hujjatlar o‘rnatilgan tartibda qayd etiladi.	Zarurat qolmaguncha 1b, 2b, 9bmoddalar
01-02	Chiquvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qayd etish daftari. Faoliyat bilan bog‘liq buyruqlar va chiqarilgan xatlar belgilangan tartibda qayd etiladi.	Doimiy 5a-modda 3 yil 898-modda
01-03	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ro‘yxatga olish daftari. Yozma, og‘zaki va elektron shakldagi barcha murojaatlar qayd etib boriladi.	3 yil ¹ 65b-modda
01-04	Faoliyatga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar yig‘ma jildi: 1. Ustav hujjati. 2. Kadastr hujjati. 3. Moddiy-texnik baza haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tashkilot pasporti. 4. Attestatsiya va akkreditatsiya natijalariga oid hujjatlar (ma’lumotnoma, dalolatnoma, sertifikat va boshqalar). 5. O‘tkazilgan tekshiruvlar bo‘yicha xulosa, dalolatnoma va ma’lumotnomalar. 6. Tashkilot direktori almashganda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomalari hamda ularga tegishli ilova hujjatlari.	Doimiy 31a- modda Doimiy 5 yil ² 355-modda 5 yil ETK ¹ 59-80-modda Doimiy 54-modda
01-05	Moliyaviy hujjatlar yig‘ma jildi: 1. Yillik sarf-xarajatlar smetasiga kiritilgan takliflar hamda tasdiqlangan smetaning yillik va choraklik nusxalari. 2. Shtatlar jadvali, xodimlar tarifikatsiyasi va ularning ish vaqtini hisobga olish tabel nusxalari. 3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘rsatiladigan qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlariga doir hujjatlar.	Doimiy (o‘zgarish kiritilgunga qadar) 3 yil ² 222-modda
01-06	Maktabgacha ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashiga oid hujjatlar.	Doimiy 3 yil ² 222-modda
01-07	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, maktabgacha ta’lim tashkilotida ushbu dastur asosida tayyorlangan variativ dastur va metodik qo‘llanmalar (<i>barcha xoimlar uchun</i>).	Yangilangunga qadar 27 ^b -modda

02 – Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar		
02-01	Davlat xizmatlari markazi tomonidan berilgan yo‘llanmalar, ota-onalar bilan tuzilgan shartnomalar hamda taalluqli buyruqlar (elektron shaklda) yig‘ma jildi.	5 yil1 25-, 1087-moddalar (bola umumta’lim maktabga ketgunga qadar)
03 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori		
03-01	Maktabgacha ta’lim tashkilotining yillik ish rejasi hamda quyida berilgan har bir hujjatlar alohida yig‘ma jildda shakllantiriladi. 1. Pedagoglarning malakasi va kasbiy mahoratini oshirish hamda pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish rejasi. 2. Umumiy ishlab chiqarish yig‘ilishlari. 3. Pedagogik kengash 4. O‘quv-amaliy seminarlar. 5. Pedagogik jarayonni jamoa bo‘lib kuzatish 6. Hamkorlik ish rejasi 7. Umumiy ota-onalar yig‘ilishlari rejasi	Doimiy 3 yil ² 222-modda
04 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosari		
04-01	Yillik ish rejasi va yillik hisoboti	3 yil 124-modda
05 – Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti (bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhi) tarbiyachisi		
05-01	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, maktabgacha ta’lim tashkilotida ushbu dastur asosida tayyorlangan variativ dastur	Yangilangunga qadar 27 ^b -modda
05-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-modda
05-03	Bolalar davomatini qayd etish (<i>tabel, filtr, ota-onalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar</i>) daftari.	Zarurat qolmaguncha 172-modda
05-04	Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot	5 yil1 25-, 1087-moddalar (bola umumiy o‘rta ta’lim maktabiga ketgunga qadar)
06 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi		
06-01	Yillik ish reja va yillik hisobot	3 yil 124-modda
06-02	Psixologik xulosalar va bolaning psixologik rivojlanish xaritasi	3 yil ¹ *XDFU* tarbiyalanuvchi tashkilotdan ketgandan so‘ng
06-03	Korreksion ish jurnali	3 yil 124-modda
07 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbari		
07-01	Yillik ish reja va yillik hisoboti	3 yil 124-modda
07-02	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	3 yil 171-modda
08 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo‘riqchisi		
08-01	Yillik ish reja va yillik hisoboti	3 yil 124-modda
08-02	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	3 yil 124-modda

09 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti (Umumiy tur) o’qituvchi-defektologi (o’qituvchi-logopedi)		
9-01	Yillik ish reja va guruhli faoliyat rejasi hamda yillik hisobot	3 yil 124-modda
9-02	O’qituvchi-defektologi (o’qituvchi-logopedi)ning bolalarni ro’yxatga olish va ro’yxatdan chiqarish, faoliyatga qatnovini qayd etish kitobi	3 yil 124-modda
9-03	Bolaning nutq xaritasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda
9-04	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda
10 – Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti til o’qituvchisi		
10-01	Faoliyatini tashkil etish jadvali va mavzuli rejasi.	3 yil zarurat qolmagunga qadar 211-modda

veb-saytimiz: Zokirjon.com

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

***+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab
telegramga murojaat qilishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.***

***O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2025-yil " 29 "-avgustdagi
323-son buyrug'ini to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.***



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**